



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

# Zarafshon



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



SAMARQAND va SHANDUN:

## HAMKORLIK YANGI BOSQICHDA DAVOM ETADI

Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib turgan viloyat hokimi E.Turdimov boshchiligidagi delegatsiya ushu mamlakat mintaqalarini rahbarlari va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda.

Viloyatimiz vakillarining navbatdagi tadbirlari Shandun provinsiyasida bo'lib o'tdi.

E.Turdimov Xitoy kommunistik partiysi Shandun provinsiyasi partiya qo'mitasasi kotibi Lin U bilan uchrashdi. Muloqot chog'ida joriy yilning sentabr oyida Samarqandda o'tkazilan uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish va ayni tashrif davomida mintaqalar o'rta-sidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Viloyatimiz hokimi, shuningdek, Lyu San boshchiligidagi Szinan shahri rahbariyati bilan uchrashuvda yuksak mehmondo'stlilik va samimiy qabul uchun mezbonlarga minnatdorlik bildirdi. O'zbekiston, xususan,

Samarqand bilan uzoq tarixiy aloqalari mavjud Shandun provinsiyasi bilan hamkorlik ikki tomon uchun manfaatlari bo'lishi qayd etdi.

Uchrashuvda tomonlar Samarqand viloyati hokimi boshchiligidagi rahbarlar va tadbirkorlarning Xitoya bu galgi tashrifi mintaqalar o'rta-sidagi aloqalarda yangi sahifa ochishi va hamkorlik istiqbollariga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Shundan so'ng viloyatimiz va Shandun provinsiyasi tadbirkorlari ishtiroyida biznes-forum o'tkazildi.

Forum ishidagi qatnashgan viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ishtiroychilarga Samarqandning investitsion jozibadorligi haqida so'zlab berdi. Shuningdek, shandunlik tadbirkorlar-

ni Samarqandda investitsiya kiritgan holda o'z bizneslarini olib borishga taklif qildi.

Biznes-forumda mamlakatimizning Xitoydagagi Favquloddha va muxtor elchisi Farhod Arziyev ishtiroy etdi va so'zga chiqdi.

Shandundagi tadbirlar davomida viloyatimiz hokimi bir qator yirik kompaniyalar rahbarlari va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Jumladan, "Shandong Heavy Industry Group" kompaniyasi rahbari Lyu Vey bilan muloqot chog'ida Erkinjon Turdimov bugungi kunda mamlakatimizda qurilish va qishloq xo'jaligi sohalari jadal rivojlanayotganini ta'kidlab, ushu yo'nalishlarda hamkorlik tomonlar uchun manfaatlari bo'lishi qayd etdi.

**Viloyat hokimligi axborot xizmati.**

## BILIM UCHUN 100 MILLION SO'M

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o'tkaziladigan "Bilim uchun 100 million" olimpiadasining bu yilgi mavsumi onlayn bosqichida 120 ming o'zbekistonlik ishtiroy etdi.

Onlayn bosqichda eng yuqori o'rinni qayd etgan TOP-100 ishtirokchi o'rta-sida olimpiadaning ikkinchi final bosqichi o'tkazildi.

Finalda kattaqo'rg'onlik 21 yoshli Jahongir To'rayev eng yuqori ball bilan birinchi o'rinni qo'lg'a kiritdi va 100 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Jahongir To'rayev 2002-yilda Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. 2019-2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetda tahsil olgan. O'ndan ziyod xalqaro matematika olimpiadalarini sovrindori va qator nomdor stipendiyalar sohibi bo'lgan.

- 2019-yilning iyul oyida Buyuk Britaniyada bo'lib o'tgan IMO (International Mathematics Olympiad) xalqaro matematika olimpiadasida masalalarini nostandard usulda ishlaganim uchun maxsus diplom (Honorable Mention) bilan taqdirlanganman, - deydi Jahongir To'rayev. - Bu mening xalqaro olimpi-

2021-yil Turkmaniston Respublikasida "4th Open Mathematical Olympiad for University Students" olimpiadasida yakka tartibda ishtiroyim uchun kumush va jamoaviyda bronza medalini, Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi Sankt-Peterburg axborot texnologiyalari, mexanika va optika milliy tadqiqot universiteti (ITMO University) tomonidan o'tkazilgan yetinchi xalqaro "NCUMC" olimpiadasida ikkinchi o'rinni egallaganman.

Bundan tashqari, Jahongir akademik T.A.Sarimsoq nomidagi, akademik Qori Niyoziy nomidagi stipendiyalar sovrindori, "Asakabank" AJ tomonidan tashkil etilgan "Yosh matematik" stipendiyasi hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi davlat stipendiyasi olibi bo'lgan.

- O'tgan yili Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ilk marta tashkil etilgan "Bilim uchun 100 million" olimpiadasida mutlaq q'olbligini qo'lg'a kiritgan edim, - deydi Jahongir To'rayev. - Bu yilgi olimpida finalida ham reytingi baland 100 nafr ishtirokchi bilan raqobatlashish oson bo'lmadi. Shunga qaraman, mantiq va tafakkurga asoslangan 50 ta savolning barchasiga to'g'ri javob berib, olimpiadada yana g'alaba qozondim.

**F.RO'ZIBOV**



dadagi ilk katta yutug'im edi. Shundan keyin 2020-yil Bolgariyada universitet talabari o'rta-sida o'tkazilgan onlayn IMC (International Mathematics Competition for university students) XXVII xalqaro matematika musobaqasida kumush medal, 2022-yilda esa ushu olimpiadada O'zbekiston terma jamaosi safida yagona oltin medalni qo'lg'a kiritdim.

**F.RO'ZIBOV**



**OBUNA –  
2024**

**Orif PARDADEV,  
jinoyat ishlari  
bo'yicha  
Samarqand  
shahar sudi raisi.**

**- Men  
"Zarafshon"  
gazetasiga  
obuna bo'ldim.**

**SIZCHI?  
Obuna  
bahosi  
O'TGAN  
YILGI  
NARXDA!**

2023-yil 14-dekabr, payshanba,  
148 (23.869)-son

**KUN  
HIKMATI**

Xoksorlik,  
kamtarlik olim  
ulug'lining  
birinchi  
belgisidir

## OBOD XONADON – OBOD KO'CHA – OBOD MAHALLA

Xayrli tashabbus mamlakat bo'ylab qanot yozmoqda



Davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan, Prezident Administratsiyasi, Xalq qabulxonalarini, mutasaddi vazirlik va idoralar vakillaridan tashkil topgan respublika ishchi guruhi viloyat hokimligi, sektorlar rahbarlari hamda Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Oqdaryo, Past Darg'om, Narpay tumanlari hokimliklari, mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda shu yilning sentabr-noyabr oylarida ushu tumanlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holati og'ir bo'lgan 5 ta mahallada "Obod xonodon", "Obod ko'cha", "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli bonyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirdi.

Joylardagi o'rganishlar va mahalliy hokimliklari taklifi asosida Kattaqo'rg'on tumanidagi Cho'yanchi, Ishtixonidagi Chag'atoy, Past Darg'omdagi Olti qahramon, Oqdaryodagi Yangiyo'rg'on va Narpaydagagi Salovat mahallalarini obod qilish, aholi uchun quay turmush sharoiti yaratish va hayotini o'zgarishit belgilanganda. Dastlab har bir mahallada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning yo'l xaritalari tuzib olindi. Xonadonbay o'rganish asosida qaysi oilaga qanday yordam ko'rsatilsa, ularning hayoti o'zgarishi belgilandi. Shu asosida uch oy ichida beshta mahalladagi 1995 ta xonadonda "Obod xonodon" mezonlari joriy etidi. Jumladan, 169 ta kam ta'minlangan oila xonadonlari homiylar hisobidan joriy va kapital ta'mirlandi.

Aholi turmush darajasini oshirishning asosiy omili bandlik, doimiy daromad manbaiga ega bo'lish hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, mahallalaridagi 611 nafr fuqaroning bandligi ta'minlandi, 40 nafriga 253 million so'm miqdorida subsidiya, 124 nafriga 2 milliard 263 million so'm miqdorida kredit ajratilishiga ko'maklashildi, ijtimoiy himoyaga muhitoj 293 nafr fuqaroga 631 million so'm miqdorida moddigi yordam ko'rsatildi.

Uch oy davomida besh mahallada ham viloyatdagi tibbiyot muassasalarining malakali mutaxassislaridan iborat guruhlar tomonidan tibbyi ko'rklar uyuştilridi. Bu tadbirlar davomida 21 mingdan ortiq aholi churqlashtirilgan tibbyi ko'rklidan o'tkazildi va ko'rlik xulosalarini asosida 261 nafr fuqaroni davolash choralarini ko'rildi, 1638 nafriga bepul dori-darmon va 31 nafriga rehabilitasiya vositalari berildi.

Mahallalarda yangi tizimni joriy etish



(Davomi 2-sahifada) >>>

Yurtimiz tibbiyot sohasiga zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi va samarali tashxis-lash-davolash usulalarining yo'lga qo'yilishi shu paytgacha xorijda bajarilgan yoki davolash imkoniyati bo'limagan xastaliklar bo'yicha jarrohlik amaliyotlarini o'zimizda bajarishga sharoit yaratdi.

Bu borada Samarcand davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida ham muayyan natijalarga erishilmoxda.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda epilepsiyan davolashda qo'ilanlayotgan antikonvulsant (antiepileptik) preparatlar 80-85 foiz holatda samara beradi. Qolgan 15-20 foiz bemorlarda ushbu vositalarni qabul qilganda ham epileptik xurujlar davom etaveradi va epileptik xurujlarni to'xtatish yoki kamaytirish imkoniyati bo'lmaydi.

Bu holat tibbiyotda farmakorezistent epilepsiya, deylidi va bunday bemorlarda xirurgik yo'l bilan davolanish talab etiladi. Ushbu yo'nalishdagi faoliyatni takomillashtirish maqsadida universitet neyroxiyurjiya va neyroleabilitasiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi professor-o'qituvchilarini klinikamiz neyroxiyurjiya bo'limi vrachlari Rossiya Federatsiyasining Tyumen shahridagi Federal neyroxiyurjiya markazi, shuningdek, Turkiyaning Istanbul va Izmir shaharlaridagi yetakchi neyroxiyurjik klinikalarda gipofiz adenomalarini va farmakorezistent epilepsiyan endoneyroxiyurjik usulda bartaraf etish bo'yicha malaka oshirib keldi. Shu bilan birga, mazkur yuqori texnologiyali neyrojarrohlik amaliyotlarini bajarish uchun neyroxiyurjiya bo'limi zamonaviy neyroendoskopik uskuna va elektron-optik konvertor



## TUTQANOQNI JARROHLIK YO'L GI BILAN DAVOLASH YO'LGA QO'YILDI

- C-arm (EOP) bilan qoshimcha jihozlandi. Natijada klinikada ilk bor gipofiz adenomalarini neyroendoskopik usulda transnazal transfenoital olish operatsiyasi amaliyotga joriy etildi.

Hozirgi kunga qadar 25 nafr bemorda mazkur neyroendoskopik amaliyotlar bajarildi. Bemorlar ko'rishning pasayishi, ortiqcha vazn, akromegaliya, ko'krakdan surt ajralishi, qandsiz diabet, qon bosimida nostabilistik kabib shikoyatlar bilan murojaat qilgan. Operatsiyadan keyin ularning barchasida ko'rish faoliyati yaxshilangan, endokrinologik buzilishlar barqarolashgach, umumiy ahvoli yaxshilagan.

Misol uchun, A. ismli 11 yoshli hamda S. ismli 23 yoshli bemor bir kunda 7-8-martagacha tutqanoq xurujlari kuzatilishi, tutqanoqqa qarshi dorilarni yuqori dozada qabul qilsa ham samarasini bo'limanligi shikoyati bilan klinikaga murojaat qilgan.

11-noyabr kuni bemorlarda yuqori texnologiyali neyroendoskopik gorizontal gemisferotomiya operatsiyasi o'tkazildi. Jarrohlik amaliyotidan so'ng ikkala bemorda ham nevrologik defitsitlar, nutq va harakat buzilishi kuzatilmadi, muhim, tutqanoq xurujlari qayd etilmadi.

Jahon sog'iqliqi saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozir-

gi vaqtida dunyo aholisining 80 foizidan ortig'ida hayotining turli davrlarida bel-dumg'aza umurtqalararo disk churrasi kuzatiladi. Buning asosiy qismini mehnatga layoqatli yoshdagagi bemorlar tashkil qildi. Shu sababli umurtqalararo disk churrasini davolashning eng samarali usulini izlash dolzarb hisoblanadi.

Shimoliy Amerika spinal xirurglar assotsiatsiyasi klassifikatsiyasiga ko'ra, bel-dumg'aza umurtqalararo disk churrasida bajariladigan jarrohlik amaliyotining uchta zamonaviy usuli mavjud. Bular - mikroxirurgik, mikroendoskopik va endoskopik. Umurtqalararo disk churrasining joylashgan joyi, migratsiyalanganligini (kranial yoki kaudal), konsistensiyasi (kalsifikatlanganligi)ni hisobga olib, jarrohlik amaliyotini qo'llashda yuqorida sanab o'tilgan zamonaviy jarrohlik usullaridan biri tanlanadi.

Bel umurtqalararo disk churrasini mikroxirurgik usulda olish, disk churralarini jarrohlik yo'l bilan davolashning "oltin standarti" hisoblanadi. Neyroxirurgiya bo'limida bel-dumg'aza umurtqalararo disk churralarini tubusli retraktor yordamida mikroskopik olish operatsiyasi ham yo'iga qo'yildi. Bu usul orqali jarrohlik amaliyoti bajarilganda bemorlarning klinikada davolashni muddati 8-10 kundan 3-4 kun-gacha qisqaradi, operatsiya vaqtida teri kesmasi 10-12 santimetrdan 2-2,5 santimetrgacha kamayadi, paravertebral mushaklar butunligi saqlab qolinadi, operatsiya vaqtida qon yo'qotilishi minimallashadi, bemorda o'tkaziladigan reabilitatsiya muddati qisqaradi. Eng asosiyi, bemorning mehnat faoliyoti qisqa muddat, o'ttacha bir oyda tiklanadi.

Keyingi ikki oy davomida klinikamizda ushbu usulda 20 dan ortiq jarrohlik amaliyotlari muvaffaqiyatli bajarildi.

**Nargiza ABDULLAYEVA,**  
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash ishlari bo'yicha prorektori, universitet ko'p tarmoqli klinikasi bosh shifokori.

*Er va xotin umumiylar nisbatan teng huquqli*

2023-yil 14-dekabr,  
payshanba

## HUQUQIY MASLAHAT

### ER-XOTINNING UMUMIY MULKI QANDAY TAQSIMLANADI?

- Bu uyda mening ham haqim bor.
- Uni o'g'imga o'zim qurbanman, ajrashishni xohlayapsanmi, endi bu uyda senga yo'q.
- Ho, hali shunaqami, ko'rsatib qo'yaman!...
- Bunga o'xshash nizolarga keyingi yillarda tez-tez guvoh bo'lib turibmiz. Ma'lumotlarga ko'ra, ko'p holatda ajrimlar ortidan er va xotin o'tasidagi mulkiy nizolar yuzaga keladi. Aksariyat hollarda odamlar bu masalaga ko'p e'tibor qaratmaydilar. Ammo ularning shu qadar nozil chiziqlari borki, buni bilmaslik gohida "g'olib" tarafga "qimmat" ga tushishi mumkin.

Ushbu magolada fuqarolik ishlari bo'yicha Samarcand shahar tumanlararo sudi sudyasi Furqat Anorov er-xotinning umumiylar va har birining alohida mulki, umumiylar tarsarruf etish, bo'lish va undagi ulushlarni aniqlash xususida so'z yuritadi.

- Nikoh davomida olingan mol-mulk er va xotinning umumiylar mulki hisoblanadi, - deydi F.Anorov. - Xususan, bunday mulki sirasiga quyidagilar kiradi:
- mehnat va tadbirkorlik faoliyatidan, shuningdek, intellektual faoliyat natijalaridan orttirilan daromadlar;
- pensiya, nafaqa, shuningdek, moddiy yordam, mayib bo'lish yoki salomatligiga yetgan zarar uchun to'langan summa va boshqalar kiradi.

### MULK ER YOKI XOTINDAN BIRINING NOMIDA ...

Er-xotinning umumiylar puliga olingan ko'char va ko'chmas ashayolar, qimmat-baho qo'zlar, paylar (aksiyalar), omonatlar, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlari kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda boshqa har qanday mol-mulklar er-xotinining umumiylar mulki hisoblanadi.

Ushbu mol-mulklar er yoki xotindan qaysi biri tomonidan to'langan bo'lishidan qat'i nazar, umumiylar mol-mulk hisoblanadi (masalan, uy-joy, mashina, omonatlar).

### NIKHDAN OLDIN OLINGAN MULK-CHI?

Bunday holatda, ya ni nikoh qayd etilgunga qadar bo'la jek er-xotinning umumiylar puliga olingan buyumlar ham umumiylar mulki sanaladi. Lekin nizo chiqqan taqdirda bunday mol-mulk birgalikda olinganligini isbotlash kerak bo'ladi. Isbot sifatida to'lov kvitansiyalari, cheklar, bank tranzaksiyalari va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

### ENG NOZIK NUQTA

Ayrim hollarda nikohdan so'ng ayol ishlamaydi, yu ishlari va bola parvarishi bilan band bo'ladi. Qonunchilikka ko'ra, er-xotindan biri uy-ro'zg'or ishlari, bolalar ni parvarish qilish bilan band bo'igan yoki boshqa urzli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqsi yoshqada daromadiga ega bo'lgan taqdirda ham er va xotin umumiylar mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi.

Ta'kidash lozim, umumiylar mulkka nisbatan er va xotin teng huquqli. Umumiylar mulkni sotish, birovga foydalananishga berish, sovg'a qilish yoki boshqacha ko'rinishda foydalananish uchun ularning haq ikkalasining roziligi kerak bo'ladi.

Masalan, er nomiga rasmiyashtirilgan uy-joyini sotishda xotinidan notarial tasdiqlangan rozilik olish lozim. Agar bunday roziliksiz uy-joy sotisiga, xotinning arizasi bilan sud tomonidan bu oldi-sotdi shartnomasi bekor qilinadi. Bunda xotin shartnomasi tuzilganligini bilmaganligi yoki tuzishga qarshi bo'lganligini isbotlab berishi kerak.

Biroq shuni yodda tutish kerakki, bunday ariza xotin uy sotilganligini bilgan yoki bilishi kerak bo'igan kundan boshlab bir yil davomida berilishi kerak.

### QANDAY TAQSIMLANADI YOKI BO'LINADI?

Umumiylar istalgan paytda: er va xotindan birining talabi bilan nikhdan ajrashmasdan ham, ajrashgandan keyin ham bo'linishi mumkin. Shuningdek, er va xotinning qarzinidir umumiylar mulkka qaratilganda ham mulk bo'linishi mumkin.

Umumiylar o'zaro kelishuvga ko'ra bo'linadi. Agar er va xotin kelisha olmasa, bu vazifa sudga qoladi. Sud er va xotinning har biriga mulknig qaysi qismi berilishi lozimligini aniqlaydi. Er (xotin)ga uning ulushidan oshiq qiymatiga ega bo'igan mol-mulk beriladigan hollarda, xotin (er)ga tegishli pul yoki o'zga kompensatsiya belgilanishi mumkin.

Bolalarning ehtiyoji uchun olingan buyumlar (masalan, kiyim-bosh, poyabzal, maktab va sport jizholari, musiqa asoblari, bolalar kutubxonasi va boshqalar) bo'linmaydi hamda bolalar er va xotindan qaysi biri bilan yashasha, unga kompen-satsiyasiz beriladi. Shuningdek, bolalarning nomiga qo'yilgan omonatlar o'sha bolalarga tegishli hisoblanadi va bo'linmaydi.

Nikhdan ajralgandan keyin umumiylar mulkni bo'lish bo'lg'isidagi ariza uch yil davomida berilishi mumkin.

### ULUSHLAR QANDAY ANIQLANADI?

Agar er va xotin nikoh shartnomasida boshqacha kelishmagan bo'lsa, ulushlar teng hisoblanadi.

Ammo sud bolalar manfaatidan va (yoki) er va xotindan birining e'tiborga loyiq manfaatini hisobga olib, jumladan, agar er xotin uzsiz sabablarga ko'ra ish-lamagan, daromad olmagan bo'lsa yoki umumiylar mulkni oila manfaatlariga zarar yetkazgan holda sarflagan bo'lsa, teng taqsimlanmasligi mumkin.

Mulki bo'lishda er va xotinning umumiylar qarzi ham ular olayotgan ulushga mos hajmda taqsimlanadi.

Agar er va xotindan biri umumiylar mulkni ikkinchi tomonning roziligidan va oila manfaatiga mos bo'lgan holda o'z xohishiga ko'ra sarflagan yoki boshqa shaxsiga o'tkazgan bo'lsa, uni bo'lishda bu mol-mulk yoki uning qiyatini hisobga olinadi.

### ALOHIDA MULKKA NIMALAR KIRADI?

Er va xotinning nikohgacha o'zini bo'lgan mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqacha bepul bitimlar bilan olingan.

Biroq bu yerda masalaning yana bir nozik tomoni bor. Masalan, ernoq nikohgacha bo'lgan paytda olgan uyi bor. Nikhdan keyin xotin bu uyi qaytadan qurishi, kapital ta'mirlashi yoki qayta jizohlashi natijasida qiymati ancha oshdi. Shunday holatda bu uy umumiylar mulk deb topilishi mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, qimmat-baho buyumlar va zebu ziyatlardan boshqalar shaxsiga foydalananishda buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal va boshqalar shaxsiga o'tkazgan bo'lsa, uni bo'lishda bu mol-mulk yoki uning qiyatini hisobga olinadi).

### XULOSA O'RNIADA

Tabiyl savol tug'ilishi mumkin, nikoh davomida va undan keyin paydo bo'lishi mumkin bo'lgan mulkiy nizolarning oldini olish uchun nima qilish kerak? Er va xotin o'tasidagi mulkiy huquq va majburiyatlari nikoh shartnomasida belgilab olish lozim. Albatta, hech kim "kun kelib, ajrashib ketaman" degan yomon niyat bilan ola qurmaydi. Biroq reallit doim ham hislar bilan hisoblashmaydi. Nikoh shartnomasi esa kelgisida vujudga kelishi mumkin bo'lgan har qanday kelishmochilish va noaniqliklarning oldini oladi.

Y.MARQAYEV yozib oldi.



## BARAKA HARAKATDA, MEHNATDA

Intilishi kuchli insonning tadbirkor bo'lishi oson. Ammo ishlani boshlagandan keyin haqiqiy ishbilarmon bo'lib qolishni hoyatda qiyin. Yangi boshlangan har bir ishda dastlab kutilmagan to'siqlar yuzaga keladi. Bularning bariga bardosh berolgan tadbirkor o'z ishlini rivojlantiradi.

Urgut tuninining Yangiobod mahallasida kasanachilik faoliyatini yo'lgan qo'yan Mehrigul Burxonova hozirda 70 dan ortiq hamqishlog'ining daromad topishida ko'makchi bo'yapti. Xonadonidan tashkil qilgan "Mehrigul tekstil" MCHJida bugun 20 ta doimiy ish o'rni yaratilgan. Yana 50 ta xonadonda kasanachilik asosida chopondon pondo'lik yo'lgan qo'yilgan.

- Chordonpo'zlikni onamdan o'r ganman, - deydi Mehrigul opa. - Bir kun kelib, bu hunar ortidan daromad topaman, deb hech o'yamagan. Dunarimidan xabardor bo'igan qo'ni-qo'shmlarini chopon tikib berishimni so'rab kelishar edi. Shu kabi goh-gohida keladigan buyurtmalarini qilib, qo'l mehnati haqini olar edim. Ishimni boshqalar ham ko'rib, buyurtmalar ko'paydi. Ro'zg'or ishlariidan bo'sh vaqtimda bajarayotgan ishimidan daromad topa boshlaganimen ruhlanardi. Dastlab choponlarni tumandagi bozorga sortishdan boshladim, asosiy ko'makchilarim oilam edi.

Ro'zg'orga qut-baraka, xonadonga farvonlik o'z-o'zidan kelmaydi. "Olma pish, og'zimga tush" qabilida yashash-

ga o'rgangan odamlarni boqimandalik kayfiyat yengib oladi. Mehrigul opa mahallada hokim yordamchisi bilan bamaslahat faoliyatini kengaytirishga kirishdi.

- Avval qo'l mehnati ko'proq edi, - deydi hunarmand. - 2022-yil yanvar oyida hokim yordamchisi ko'magi bilan Xalq bankidan 220 million so'm kredit olib. Xitoydan dastgoh olib keldi. Endi ishimizning unumi oshgan. Kuniga 500 tagacha chopon tikyapmiz. Bugun tukumizning o'zida 20 nafardan ortiq xotin-qiz isilan band. Hozir asosan Surxonday viloyatiga chopon yetkazib beryapmiz. Kelgisida yangi ish o'rnlari yaratish maqsadida kasanachilik asosida mahalladoshlarimizning bandligini ta'minlashni rejalashtirganman. Bunda asosan uyda ishiz o'tirgan, ijtimoiy daftarlardagi xotin-qizlarga ko'mak be-niyat qilyapman.

Baraka harakatda, mehnatda. Mehnatdan, izlanishdan ochqimagan odam, albabta, maqsadiga erishadi. Intilganga tote yor. Insonning mehnati, so'zi halol bo'lsa, uni barcha qo'llab-quvvatlaydi.

S.MARDIYEV

Bir so'z bilan aytganda, uch oy davomida viloyatdagi besh mahallada misolida yurtimizda inson qadri ulug'lash, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish bugun davlatimiz ijtimoiy siyosatining asosini tashkil etishi yana bir bor namoyon bo'ldi. E'tiborli, bu ishlar ertaga boshqa mahallalarda davom etadi va butun mamlakatimiz obodlik sari yuz tutadi.

Mamatjon TURDIYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi mudiri.

Favqulodda vaziyat — bu muayyan hududda o'zidan so'ng odamlar ning qurban bo'lishi, odamlar sog'lig'i yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir.

Bularni sanashimizdan maqsad ofat yoki ko'ngilsizlik faqat biz bilgan, ko'rgan yoki eshitganimiz bilan chegaralarni maydi. Shunday ekan, ularni bilish, keltiradicani zarari haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lish foydadan xoli bo'lmaydi. Viloyatda bu turdagidagi hodisalar qanchasi ro'yxatga olingan, oqibatlari qanaqa? Shu va boshqa savollarga javob olish maqsadida viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i Ilhom Ismoilova murojaat qildik.

- **Ilhom aka, yong'in sodir bo'Iganda, aksariyat hollarda fuqarolar favqulodda vaziyatlar xodimlari vaqtida yetib kelmaganidan nolidi. Bunga sabab nima, yong'in sodir bo'Igan joyga qancha vaqtida yetib boriladi?**

- Keyingi paytda uylarda, ko'p qavatlari bino va avtomobilarda yong'inlar ko'p sodir bo'lmogda. Buning asosiy sababi yong'in xavfsizlik qoidalariiga roya qilmasligi bo'lmogda. Favqulodda vaziyatlar bo'limlari yong'in haqida xabar kelib tushgandan so'ng hududning masofasiga qarab, yaqin atrofdagi yong'in o'chirish bo'limiga xabar qilinadi. Bo'limlarda texnika va yong'in o'chirish vositalari shay holatda bo'ladi va 45 sekundda belgilangan hudud tomon harakatlanadi. Avtomashinalarning harakatlanish tezligi soatiga 40-45 kilometr bo'lib, hudud masofasiga qarab yetib boriladi.

To'g'ri, ba'zi hollarda fuqarolar yong'in sodir bo'Iganda favqulodda vaziyatlar xodimlari vaqtida yetib kelmaganidan shikoyat qiladi. Bunda xodimlarning aybi yo'q. Aslida ular belgilangan me'yor asosida ish olib boradi. Hozirgi kunda yo'llardagi tirbandliklar, ko'chalarning ta'mortalabligi va aholi tomonidan turli sun'iy yo'l belgilarining o'rnatilishi, shuningdek, yong'in sodir bo'Iganda, fuqarolar to-

# OYLIK QANDAY O'TDI?

monidan o'zi o'chirishga urinish yoki noto'g'ri manzilga xabar qilish natijasida ham bunday holatlar kuzatiladi.

- **Keyingi paytda o'zini favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimi sifatida tanishirib, qandaydir xizmati uchun fuqarolardan pul olayotgan firibgarlar uchramoqda. Viloyatda shu kabi holatlar kuzatildimi va bunday holat-larda nima qilish kerak?**

- Kuz-qish mavsumida aholi orasida, ayniqsa, tumanlarda maxsus kiyim-bosh kiyib yurgan yoki shu kiyimga juda o'xshash libos kiyang shaxslar o'zlarini "davlat yong'in nazorati organi xodimi" sifatida tanishirib, fuqarolardan noqonunu pul yig'ish holatlar kuzatilmoqda.

Bu harakatlar asosan nomida "yong'in", "olov", "qarshi kurash", "xavfsizlik", "himoya" kabi so'zlar bo'Igan va yong'inning oldini olish aks etgan turli xil ramzlar tushirilgan muhrshtamplardan foydalab ke layotgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilayot-gani ma'lum bo'Igan.

Shuni eslatib o'tish kerak, yong'in va uning oldini olish bilan bog'liq biron bir to'lov qonunchilikda mavjud emas. Agar shunday holatlar kuzatilsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar qaroqta qilish lozim.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 209Ne-moddasiga ko'ra, formal kiyim-bosh kiyib yurishi nazarda tutilgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar harbiy xizmatchilari hamda xodimlarining tasdiqlangan namunadagi harbiy, idoraviy va maxsus formal kiyim-boshini bunday huquqqa ega bo'lmagan shaxslar tomonidan kiyib yurish uchun javobgarlii belgilangan.

- **15-noyabrdan 15-dekabrga qadar respublikamizda "Yong'in xavfsizligi oyligi" e'lon qilindi. Bu bora-da viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va tashkilotlar tomonidan qanday ishlar amalga oshirilmoqda?**

- Viloyatda favqulodda ho-

latlarning oldini olish va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida haftaning chorshanba va shamba kunlari profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda. Shuningdek, kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, yong'inlar va is gazib bilan bog'liq holatlarning oldini olish maqsadida "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida viloyatning barcha shahar va tumanlarda profilaktik tadbirlar olib borilib, tegishli idora va tashkilotlardan 780 nafr vakil jalb etilgan.

Jumladan, ko'p kvartirali uyldarda o'tkazilgan tekshiruvlar xizmat ko'rsatish ishlari olib borgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan o'zlariga qarshilashtirilgan ko'p kvartirali uy-joylarda texnik va yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilmaganligi aniqlandi.

Viloyatda aholi yashash punktlarida yong'in o'chirishga mo'ljallangan 2330 ta yong'iniga qarshi suv havzalarini mavjud bo'lib, bugungi kunda 290 tasi nosoz va 768 tasi suv bilan to'ldirilmagan kuzatildi, 1372 ta yer osti suv (gidrant) olgichlar dan 240 tasi nosoz holatda.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti hamda Samarqand davlat iqtisodiyot va servis instituti qarashli yotoqxonalarda yong'in xavfsizligi qoidalariiga rioya etilmagan va binolarda o'rnatilgan yong'in signalizatsiyalari, evakuatsiyani boshqarish tizimlari nosoz holatda va binolarda rejali-ogohlantiruv ta'mirlash ishlari olib borilmanadi.

Shuningdek, mahallalar, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlari qarashli obyektlar, maktabgacha ta'lim muassasalarini hamda davolash muassasalarida shifokorlar hamda ischchi-xizmatchilar bilan birgalikda is gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasi chaqnosti hamda oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish, botulizm va qu-turish kasalliklari bilan bog'liq

**P.S: "Oldini olish". Bu jumla Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 60 marta qo'llanilgan. Demak, favqulodda vaziyatning oqibatini bartaraf etishdan ko'ra, uning oldini olish birlamchi masala. Mazkur masalada mas'ul boshqarmaga rasmiy murojaat bilan chiqib, ayrim savollarimizga javob ololmadik.**

Xususan, "Yil boshidan buyon viloyatda qancha yong'in sodir bo'Igani, is gazidan zaharlanish kuzatildimi-yo'qmi?" degan savolimiz javob xatida ochiq qoldirilgan. Yana savol tug'iladi, statistik raqamlar ochiqlanmas ekan, tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlarning oldi qay tariqa olinadi?

Aytmoqchi bo'Iganimiz, statistika ochiqlansa, jamoatchilik yanada sergak va hushyor bo'lmaydimi? Axir butun dunyoda odamlarga ma'lumot berish orqali muammoning oldi olinadi-ku!

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash mavzularida suhbatlar o'tkazildi.

- **Oylik doirasida olib borilgan profilaktik tadbirlar davomida hududlarda qanday kamchiliklar aniqlandi?**


- Ob-havoning keskin sovushi, kuz-qish mavsumi olib borilgan profilaktik tadbirlar hamda oylik doirasida o'tkazilgan tekshirish va o'rganishlar davomida mahallalarda, ko'p kvartirali uy-joylarda hamda iqtisodiyot tarmoqlarida tegishli mas'ul rahbarlar tomonidan o'z hududlarida yong'in xavfsizligi aniqlanti.

Jumladan, ko'p kvartirali uyldarda o'tkazilgan tekshiruvlar xizmat ko'rsatish ishlari olib borgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan o'zlariga qarshilashtirilgan ko'p kvartirali uy-joylarda texnik va yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilmaganligi aniqlandi.

Viloyatda aholi yashash punktlarida yong'in o'chirishga mo'ljallangan 2330 ta yong'iniga qarshi suv havzalarini mavjud bo'lib, bugungi kunda 290 tasi nosoz va 768 tasi suv bilan to'ldirilmagan kuzatildi, 1372 ta yer osti suv (gidrant) olgichlar dan 240 tasi nosoz holatda.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti hamda Samarqand davlat iqtisodiyot va servis instituti qarashli yotoqxonalarda yong'in xavfsizligi qoidalariiga rioya etilmagan va binolarda o'rnatilgan yong'in signalizatsiyalari, evakuatsiyani boshqarish tizimlari nosoz holatda va binolarda rejali-ogohlantiruv ta'mirlash ishlari olib borilmanadi.

**Fazliddin RO'ZIBOVYEV suhbatlashdi.**



Kvant elektronikasining asoschilaridan biri, Nobel mukofoti sohibi Nikolay Gennadiyevich Basov umrini buyuk kashfiyot-larga bag'ishlagan insonlardan. Bu yil butun dunyoda olim tavalludining 101 yilligi keng nishonlanmoqda.

Nikolay Basov 1922-yilda Rossiya federatsiyasi Lipetsk viloyatining Usmoni shahrida tavallud topdi. Uning otasi Gennadiy Basov Voronej o'rmon xo'jaligi texnikasi institut professor bo'lib ishlagan.

N.Basov besh yoshgacha Usmoni shahrida yashadi. 1927-yil oxirida Basovlar oilasi Voronejga ko'chib kelishdi va bo'rajak olim u yerda o'rta maktabni bitirdi. Shunga qaramasdan, Basovlar oilasi Usmoni shahriga tez-tez borib turardi. U yerda otasining singlisi 2-o'rta maktabning fizika o'qituvchisi Taisiya Fyodorovna ham yashar edi. Kichik Kolya har yili yozda ammasining uyida ta'ilni o'tkazar, ba'zan esa qishki ta'tilda ham u yerda qolar edi. "Mening matematika va fizika bo'lgan qiziqishimda ammam Taisiya Fyodorovnadan bir umr minnatdorma. U mening aniq fanlarni tushunishimga muhabbat uyg'otdi", degan edi Nikolay Gennadiyevich.

1946-yilda Moskva mexanika instituti (hozirgi Moskva muhandislik va injenering instituti)da, 1948-yilden P.N.Lebedov nomidagi fizika institutining tebranishlar laboratoriyasida ishlash boshladgi. Institutni tugatgandan so'ng Fizika institutida kichik, katta ilmiy xodim, direktor o'rinnbosari, 1973-1988-yillarda shu institutning direktori sifatida faoliyat olib bordi.

N.Basov 1953-yilda nomzodlik, 1956-yilda esa doktorlik ihinini himoya qildi. 1954-yilda ustoz A.M.Proxorov bilan molekuljar generatorni yaratdi. Lazerning kasht etilishi fizika fanining ulkan yutug'i hisoblanadi. Chunki bu ixtironing fan va texnikada co'ilanishi cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib berdi. 1964-yil 11-dekabr kuni kvant fizikasi asoschilarini, buyuk fiziklar Nikolay Basov, Aleksandr Proxorov hamda amerikalik Charlz Tounsg Nobel mukofoti topshirildi.

N.Basov 1956-yilda nomzodlik, 1956-yilda esa doktorlik ihinini himoya qildi. 1954-yilda ustoz A.M.Proxorov bilan molekuljar generatorni yaratdi. Lazerning kasht etilishi fizika fanining ulkan yutug'i hisoblanadi. Chunki bu ixtironing fan va texnikada co'ilanishi cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib berdi. 1964-yil 11-dekabr kuni kvant fizikasi asoschilarini, buyuk fiziklar Nikolay Basov, Aleksandr Proxorov hamda amerikalik Charlz Tounsg Nobel mukofoti topshirildi.

N.Basov 1956-yilda nomzodlik, 1956-yilda esa doktorlik ihinini himoya qildi. 1954-yilda ustoz A.M.Proxorov bilan molekuljar generatorni yaratdi. Lazerning kasht etilishi fizika fanining ulkan yutug'i hisoblanadi. Chunki bu ixtironing fan va texnikada co'ilanishi cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib berdi. 1964-yil 11-dekabr kuni kvant fizikasi asoschilarini, buyuk fiziklar Nikolay Basov, Aleksandr Proxorov hamda amerikalik Charlz Tounsg Nobel mukofoti topshirildi.

N.Basov 1956-yilda nomzodlik, 1956-yilda esa doktorlik ihinini himoya qildi. 1954-yilda ustoz A.M.Proxorov bilan molekuljar generatorni yaratdi. Lazerning kasht etilishi fizika fanining ulkan yutug'i hisoblanadi. Chunki bu ixtironing fan va texnikada co'ilanishi cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib berdi. 1964-yil 11-dekabr kuni kvant fizikasi asoschilarini, buyuk fiziklar Nikolay Basov, Aleksandr Proxorov hamda amerikalik Charlz Tounsg Nobel mukofoti topshirildi.

N.Basov 1956-yilda nomzodlik, 1956-yilda esa doktorlik ihinini himoya qildi. 1954-yilda ustoz A.M.Proxorov bilan molekuljar generatorni yaratdi. Lazerning kasht etilishi fizika fanining ulkan yutug'i hisoblanadi. Chunki bu ixtironing fan va texnikada co'ilanishi cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib berdi. 1964-yil 11-dekabr kuni kvant fizikasi asoschilarini, buyuk fiziklar Nikolay Basov, Aleksandr Proxorov hamda amerikalik Charlz Tounsg Nobel mukofoti topshirildi.

Muhammad ABDURAHMONOV, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti. Sanjariddin ZIROV, assistant.

Samargand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Xasanova Shaxranga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*

Samargand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Xasanova Shaxranga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*

Samargand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Xasanova Shaxranga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*

Samargand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Xasanova Shaxranga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*

Samargand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Xasanova Shaxranga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*

Samargand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Xasanova Shaxranga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*

Samargand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Xasanova Shaxranga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*

Samargand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Xasanova Shaxranga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan

↓ Qatag'on qurbanlari

# TUHMAT GIRDOBIDA

Annaqul Abdullayev 1895-yilda Samarqand shahridagi Qalandarxona mahalasida tug'ilgan. 1917-yil oktabr to'ntarishiga qadar masjid qoshidagi boshlang'ich muktabda, ikki yil madrasada tahsil olgan. Otasi uni rus tilini o'rganishga da'vat qilgach, 3 yil rus-tuzem muktabida o'qiydi.

1918-yildan e'tiboran shaharning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok eta boshlaydi. Samarqanddagi militsiya muktabini bitirgach, shu sohada xizmat qiladi. Shaharning bir nechta uchastkalarida katta militsioner bo'lib ishlaydi. Bu borada uning savodi va rus tilini bilishi qo'l keldi. Shu sababli uni prokuratura organlariga ishga jalb etishadi. 1924-yilda Samarqand rayon prokurorining yordamchisi vazifasiga tayinlanadi.



Ish davomida tergov jarayonlarini xolis olib borishga intildi. Turli toifadagi aholini, hunarmandlarni, qulq deb e'lon qilingan shaxslarni noo'r in tazyiqlardan asrashga intildi. Bunday hollarni uning ustidan yozilgan, tuhmatlardan iborat xathlardan ham bilsa bo'ladi.

Ana shunday tuhmattlar tufayli 1925-1926-yillarda O'zSSR Oliy sudi jinoi ishlar kollegiyasi uning ustidan jinoi ish qo'zg'ab, ikki marta sudga tortadi. Bir necha oy davom etган bunday tekshiruvlar, sudlovlar natijasida barchasi uning ustidan yushtirilgan tuhmat ekanligi ma'lum bo'ladi va butunlay oqlanib, o'z ishiga qayta tiklanadi.

1927-yil yanvar oyida O'zSSR Adliya xalq komissarligiga uning ustidan yana shikoyat xati tushadi. Shikoyat mualliflari Samarqandning Qalandarxona mahallasilik Miry Yusuf Miryoqubov va Maxdumi Xorazmiy mahallasidan bo'lgan Mirzo Nodirov edilar. Shunisi qiziqki, ilgari yozilgan va Annaqul Abdullayev ustidan O'zSSR Oliy sudida jinoi ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan ikkitu shikoyat mualliflari ham aynan shu kishilar edi. Lekin negadir bu hol Adliya xalq komissarligidagi ham, Oliy suddagilarni ham ajablanitmadi. Aksincha, darhol shikoyatni tekshirish va Abdullayevga nisbatan chora ko'rish, jinoi

yatning ortidan yuradi. Agar bilim va imkon bo'limasa, har narsani havas qilaverish befoyda. Shuning uchun, avval imkon yaratting, keyin orzu qiling.

\* Keksalarning so'zi-da hikmat bor. Faqat uning mag'zini chaqib, hayotga tatiq eting.

\* Ajoddalar ildizingiz ekanini unutmang. Shu ildizdan babra olib, o'sayotgan nihol kelajakda katta darraxta aylanadi.

\* Odamning yomoni, tarbiyaning eskisi bo'lmaydi. Faqat ularni turilicha tushunib xulosa chiqaramiz, xolos. Bizga yomon tuyulgan odam boshqaga yaxshi bo'lishi ham mumkin.

\* Hayot murakkab. U kimgadir istaklar bog'i, kimgadir kurash maydoni.

\* Inson hayot muktabining bir umrlik o'quvchisi. Chunki u tug'ilgan kunidan boshlab, umrining oxirigacha hayot fani dan dars olib yashaydi.

\* Baxilik, hasad va ichiqoraliq kabi illatlar bor ekan, odamlar orasida o'zaro ziddiyat va kelishmovchiliklar davom etaveradi.

Chori QO'NG'IROV, mehnat faxriysi.

javobgarlikka tortish Adliya xalq komissarligining muhim ishlar bo'yicha tergovchisi Bukining topshiriladi. U zdulik bilan ishga kirishadi.

Shikoyat xatida nimalar ko'rsatilgan edi?

1) Annaqul Abdullayev xizmat vazifasini suiste'mol qilib, birovlarning uyini tortib olgan.

2) Og'ir jinoyatlarda ayblangan Qurbon Mavlonovi, ayollarni o'g'irlashi, zo'rplasha, bosqinchilikda, qotillikda ayblangan Murod Ochilovni avval qamoqqa olib, keyin pora evaziga qo'yib yuborganlikda (go'yoki, Murod Ochilovning onasi Annaqul Abdullayevning ishxonasiga (7 cherbonet) 700 so'm olib kelib bergen emish).

Bu shikoyatlar bilan cheklanmay, hibsonada yotgan Rjevskiy, urgutlik tanishlari Mirza Qobilov, Samarqandning Qozi G'affor mahallasidan Nosir Po'latovni ham ishga solib, shikoyat yozdiradilar. Rjevskiyning yozishicha, go'yoki A. Abdullayev hibsonaga kelib, u yerda saqlanayotganlarni kaltaklatgan va hokazo.

Adliya xalq komissarining tergovchisi Buki shikoyatlarni va guvohlari birma-bir so'roq qilar ekan, A. Abdullayevning ustidan ochilgan jinoyat ishi xuddi gugurt qutisidan yasalgan uydek, bir chertsqa, qulab tushishiga ishchon holsi qiladi. Masalan, jinoyatchilar Qurbon Mavlonov va Murod Ochilov nafaqat hibsdan ozod etilgan, balki har bira 10 yildan qamoq jazosiga hukm qilingan. Murod Ochilovning onasidan "Annaqul Abdullayevga 700 so'm olib kelib bergenmisiz", degan savolga u ayol "cho'ntagimda besh so'm ham pulim yo'q, buncha mablag'ni qayerdan olaman?", deb javob bergan. "Nega bo'limasa, prokuratura xodimi ustidan shikoyat yozdingiz", degan savolga "Urgutdag'i hamsoyamiz Mirza Qobilov bir xatni olib kelib, shunga barmoq bosib bersangiz o'g'lingiz tezda qamoqdan chiqadi, deb barmoq bostiruvdi", deya javob qaytaradi. Rjevskiyning shikoyati ham xuddi shu yo'sinda o'z tasdig'ini topmadni...

Voeqa bunday bo'lgan edi. Kunlarning birida Samarqand aroq zavodining 5-6 nafr ishchisi mehnat vaqtini tugaqandan so'ng yaqin-attrofdagi oshxonaga kirib, rosa ichkilkibzolik qilishadi. Bir-birini tanimaydigan darajaga kelgach, o'rtalarida janjal chiqib, mushtasha boshlaydilar. Yetib kelgan militsiya xodimlari ularni vaqtinchalik hibsonaga olib borib, bir kameraga qamab qo'yishgan. Lekin ular kamerada ham bir-birlari bilan mushlashib ketishadi. ularni tinchlantrish uchun kirgan 2 nafr militsiya xodimlariga ham tashlanib, urmoqchi bo'lishadi. Shunda boshqa militsiya xodimlari yordamga kelib, kuch ishlatib, bu mast-alast odamlar to'dasini tinchlantridilar.

Rayon prokurori yordamchisi Annaqul Abdullayev bu voqealar sodir bo'lgan paytda shu yerda edimi, degan savolga hibsonani bevosita qo'riqlagan ikki militsioner "yo'q", deb javob berishadi. Chunki uni borib kinoteatrda kino ko'rib o'tirgan joyidan chaqirib kelishadi.

Bu paytda haligi mast kishilar ancha tinchlanib qolishgan edi. Militsionerning aytishicha, A. Abdullayev ularga bu odamlarni bir-birdidan ajratib, boshqa-boshqa kameralarga joylashtirishi va ertaga ma'muriy jarimaga tortib, qo'yib yuborishlarini tayinlab chiqib ketgani.

Nazarimizda, tergov jarayonida bu holatlarning guvoji bo'lgan Buki o'zini chetga olish chorasini ko'rganga o'xshaydi. Shundan so'ng, Adliya xalq komissari o'rnbosari buyrug'i bilan ushbu ishni davom ettirish uchun muhim ishlar bo'yicha tergovchi Ginsburg tayinlanadi.

Ginsburgning Abdullayevni so'roq qilish jarayonida nega Miry Yusuf Miryoqubov va Mirza Nodirovning uning ustidan har xil tuhmatlardan iborat shikoyatlar yozish sababli bir qadar oydinlashadi.

Tergovchi Ginsburgning savoliga A. Abdullayevning javoblaridan: "Miry Yusuf Miryoqubov masalasiga kelsak, biz u bilan bir mahalladan - Qalandarxonadaniz. 1923-yilda mahalla oqsoqoli - raisi saylovi paytda odamlar o'sha paytda ushbu vazifada ishlagan Miry Yusuf Miryoqubovning qo'li egri, faqat o'z manfaatini ko'zlashini bilib, uning o'rning meni saylashdi. Bu uning menga nisbatan g'ayirligini qo'zg'aydi. 1924-yil Samarqand rayon prokurori yordamchisi etib tayinlanganim-



# 500 YILLIK

Samarqand badiiy ijodkorlar uyushmasi ko'rgazma zalida "Usmoniyalar imperiyasida diplomatiya va mehmonorchilik ko'rgazmasi ochildi.

Ko'rgazma  
Turkiya Respublikasi  
tashkil  
dan  
so'ng  
bu ishni  
xalq saylagan  
boshqa kishiga topshirdim. 1925-yilda men-ga turarjoy sharoitimni inobatga  
olib, shahar komunal xo'jaligiga tegishli  
xonadonlardan birini berishdi. Keyin bilsam, bu xonadon katta  
hovli bo'lishiga qaramay, Miryoqubov tomonidan egallab olin  
gan ekan. Kommunal xo'jalik ma'muriyatini buni bilib qolib, undan  
uyni bo'shatishini talab qilgan. Oradan bir oy o'tib, aynan shu  
xonadon menga ajratiladi. "Annaqul Abdullayev xizmat vazifasini  
suiste'mol qilib birovlarning uyini tortib olgan", deganida u xuddi  
shu holni nazarda tutyapti.

Bundan tashqari, "mahalla ahli ularning xonadoniga soliqchilar kelganida bir narsani bilib qolishadi. Ular mahalla oqsoqoliga to'plab bergan 9 ming so'mlik soliq puli bankka topshirilmay, M. Miryoqubov tomonidan o'zlashtirib yuborilgan ekan. Bu voqeani eshitib, uning oldiga bordim va agar qamalib ketishni istamasa, zdulik bilan halqdan olingen pulni joyiga qo'yishi lozimligini aytdim va bu ishni qildirdim ham. Mana shularning hammasi jam-lanib uning menga nisbatan g'arazini ro'yi-rost yuzaga chiqardi".

Shu yerda bir masala haqida to'xtalish lozim. Annaqul Abdullayev boshiga shuncha tuhmat toshlari yog'iladi-yu nahotki, uning tarafini oladigan biror-bir kishi topilmagan bo'lsa? Yo'q, topilgan. Ular yosh va haqo'y prokuratura xodimini qo'llab-quvvatlashgan. Bular, O'zbekiston Kompartiyasi (b) Samarqand okrug komitetining kotibi Rahimiy va okrug ijroiya komitetining raisi Shirinov edi. Ular respublika Adliya xalq komissarligiga murojaat qilib, bu ishni xolisona hal qilishni so'radiv. Ikki yarim yillardan buyon goh hibsga olib, goh qo'yib yuborilib davom etayotgan so'roqar A. Abdullayevni holdan toydirgandi.

Quyida tergovchi Ginsburgning Samarqand okrug partiya komitetining kotibi yuborgan so'rovnomaga yozgan javobini keltiramiz: "Partiya a'zosi Abdullayev Annaqulning hozirgi paytda ishsiz ekanligi va uning ishi yuzasidan tergov cho'zilib ketganligi sababli Sizning so'rovnomangizga javoban shuni ma'lum qilamanki, tergov tamom bo'lganiga qadar u rahbarlik bilan bog'liq bo'limagan odidiy ishlarga tayinlanishi mumkin".

1929-yil avgust oyi boshida Ginsburg tergov tugaganini e'lon qildi. U O'zbekiston SSR Oliy sudining Jinoi ishlar kollegiyasiga yozgan ma'lumotida A. Abdullayev ustidan olib borilgan tergov davomida unga qo'yilgan ayblarning hech qaysi o'z isbotini topmag'anligini bildiradi. Va niyoyat, 1929-yil 14-avgustda O'zSSR Oliy sudining Jinoi ishlar bo'yicha kollegiyasi A. Abdullayevga nisbatan ochilgan 34-raqamli Jinoi ishni Oliy sud a'zosi Toropkov raishigida ko'rib chiqilib, Jinoi-protsessual kodeksining 4-moddasiga 5-bandiga asosan, A. Abdullayev harakatlarida jinoyat alomatli bo'limanligi sababli harakatdan to'xtatiladi.

Shundan keyin Abdullayevning taqqidi qanday kechgan? Hozirgacha hech kim buni bilmaydi. Ehtimol, o'zi xizmat qilayotgan soha xodimlari ham og'ir damlarda yaqqlar ko'rinib turgan tuhmat balolaridan uni asrashga harakat qilish o'rninga boshidan mag'zava ag'darish payida bo'lishgan tufayli bu ishdan ko'ngli qolib, boshqa yumushning boshini tutgandir! Balki yaqinlashib kelayotgan katta qatag'on to'fonini his qilib, bunday mudhish jarayonda ishtirot etishni istamagandir... Nima bo'lganda ham biz uning nomini Samarqand viloyati prokratura organlari xodimlari ro'yxatida boshqa uchratmaymiz.

Xurshid MUSURMONOV,  
viloyat prokuraturasi bo'lim prokurori.  
Muzaffar MUQIMOV.

## MEN ANGLAGAN HAQIQAT

\* Insonni shakkantirishning minglab yo'li, usullari bo'lishidan qat'i nazar, tarbiya bilan amalga oshadi.

\* Tarbiya o'zini o'zi idora qilishga, mustaqil fikrlashga, odob va axloq doirasida yashashga, boshqalarga hurmat ko'zi bilan qarashga o'rgatadi.

\* Yoshlarga tarbiya berayotgan tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Chunki daraxtni uning shirin mevasi bezaganidek, ustozni uning aqlli, bilimdon shogirdlari bezaydi.

\* O'quvchisiga ta'lif berayotgan o'qituvchi haqida xunuk so'z atygan ota-ona bolasining tarbiyasini buzgan bo'ladi.

\* Hayotdagi har bir voqe va hodisaga iibrat ko'zi bilan qarashni o'rganing. Bu xislat sizga dunyonni ochadi.

\* Maqsadi bor odam mehnat qilishni ham bilishi lozim. Mehnatsiz maqsad sarobga o'xshaydi.

\* Orzu-havas bilim va imkon-

yatning ortidan yuradi. Agar bilim va imkon bo'limasa, har narsani havas qilaverish befoyda. Shuning uchun, avval imkon yaratting, keyin orzu qiling.

\* Keksalarning so'zi-da hikmat bor. Faqat uning mag'zini chaqib, hayotga tatiq eting.

\* Ajoddalar ildizingiz ekanini unutmang. Shu ildizdan babra olib, o'sayotgan nihol kelajakda katta darraxta aylanadi.

\* Odamning yomoni, tarbiyaning eskisi bo'lmaydi. Faqat ularni turilicha tushunib xulosa chiqaramiz, xolos. Bizga yomon tuyulgan odam boshqaga yaxshi bo'lishi ham mumkin.

\* Hayot murakkab. U kimgadir istaklar bog'i, kimgadir kurash maydoni.

\* Inson hayot muktabining bir umrlik o'quvchisi. Chunki u tug'ilgan kunidan boshlab, umrining oxirigacha hayot fani dan dars olib yashaydi.

\* Baxilik, hasad va ichiqoraliq kabi illatlar bor ekan, odamlar orasida o'zaro ziddiyat va kelishmovchiliklar davom etaveradi.

Gazeta "Zarafshon" tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Boshishga topshirish vaqt: soat 18:30 da.

Boshishga topshirildi: soat 19:00.

Gazeta "Zarafshon" tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Reklama va e'lonlar»: (66) 233-91-51.

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

ISSN-201667X

9 7 7 2 0 1 0 6 6 7 0 0 9

Sotuvda narxi kelishilgan holda

Matbuot uyi

Zarafshon

САМРАКАНДСКИЙ ВЕСНИК

Navbatchi muharrir:

A.SHERZOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.